

**"BOBURNOMA" DAGI ISLOMIY ATAMALAR BILAN IFODALANGAN  
O'LCHOV BIRLIKHLARI LEKSEMALARINING INGLIZCHA TARJIMALARI  
TAHLILI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10250179>

**Sayyora Shodmonova Baxromovna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*PHD dotsent. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*ORCID ID 0009-0005-2564-9003*

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola "Boburnoma" matnidagi o'lchov birliklarining pragmatik xususiyatlariga bag'ishlanadi. O'lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. "Boburnoma" matnidagi o'lchov birliklari leksemalarining tarjimalarda aks etishdagi muammolar va ularning tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil qilingan.

#### **Kalit so'zlar**

*o'lchov birliklari, ashrafiy, shohruhiy, olmos, dinor, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat, matematik raqamlar,*

Yurtimiz ming yillar davomida o'zining yuksak madaniyati va shonli tarixi bilan mashhur bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz ilm-fanning barcha sohalarida samarali ijod qilib, buyuk ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirgan. Ular qoldirgan benihoya boy ilmiy meros, hozirgi kunda o'ta qadrli va dolzarbdir. Buyuk ajdodlarimiz – Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin al Koshiy singari mutafakkir allomalarimiz asarlarida foydalangan o'lchov birliklari ham o'ziga xos bo'lib, mazkur allomalarning ilmiy tadqiqotlarini o'rganishda va mohiyat-mazmunini anglashda asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" matnida bunday o'lchov birliklari leksemalarini juda ko'p uchratishimiz mumkin.

Islom dini va musulmon jamiyatni odatda o'lchov birliklari leksemalari bo'yicha jiddiy qoidalar asosida ish olib borgan, bular hozirda yana davom etmoqda. Islomda o'lchov birliklariga bo'lgan munosabat hech qachon yuzaki bo'lmas, chunki musulmon jamiyatida savdoda ham, boshqa munosabatlarda

ham qat'iy mezonlarga amal qilingan. Islomiy o'lchov birliklarining aksariyati bugungi kunda faqat eski qo'lyozma kitoblarda va mumtoz asarlarda saqlanib qolgan, tarixiy asarlarda ham o'z aksini topgan.

O'rta asrlar musulmon sharqi mamlakatlari tarixi va o'lchov birliklari borasida ko'zga ko'ringan tadqiqotchi olim Valter Hints va YE.A.Davidovich o'z asarlarida, bir-biridan mustaqil ravishda shunday faktni keltirishgan<sup>32</sup>: Markaziy Osiyo musulmonlari o'lchov birliklari leksemalari borasidagi qoidalarga, boshqa har qanday hudud musulmonlaridan ko'ra, qat'iy amal qilgan. Bunda xalqaro savdo munosabatlarini yuritishda ham jiddiy ehtiyyotkorlik choralari ko'rilgan.

Har bir xalqning tarixi, bosib o'tgan va erishib kelayotgan iqtisodiy hamda siyosiy o'zgarishlarga boy yo'li, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan yangilanishlar mumtoz asarlarda bevosita va bilvosita tarzda o'z aksini topadi, bular aks ettiruvchi vositadir.

Islom dinining turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqalib borishi, shuningdek, musulmon an'anasi, urf-odatining taraqqiy etishi bilan bog'liq holda bir qancha islomiy birikmalar tilimizda saqlanib qolgan va amalda foydalanib kelinadi. Mumtoz asarlar davr tarixini o'zida aks ettirishi bilan birga, tabiiyki, tilning o'sha davrdagi tuzilmasi va holatini ham namoyon ettirishda muhim ko'rsatkichdir. Shuningdek, turkiy xalqlarning qamariy oy, hijriy yil hisobidagi arab yilnomasidan foydalanganliklari bizga ma'lum. Vaqt o'lchovini ifodalovchi eski oy nomlari bilan hozirda tilimizda qo'llanilayotgan baynalmilal oy nomlari orasida ma'lum darajada farq bor. Misol tariqasida, "Grigorian kalendari bilan quyosh kalendari o'rtasidagi farq 11 kundan iboratdir. Grigorian kalendari 365 kunni, Quyosh kalendari esa 354 kunni"<sup>33</sup> tashkil etadi.

Qadimdan vaqt o'lchov birliklari leksemalari sifatida vaqtning o'lchovlarini amalga oshirishda ishlatib keligan vaqt leksikonlari haqida tilimizda turlicha fikrlar mavjud. Ayrim manbalarda<sup>34</sup> ular tarixiy so'zlar qatoriga kiritiladi, degan ifoda aks etadi.

Olimlarimizdan biri E.Qilichev tilimizdagи nofaol leksikaning bu ko'rinishini araxaizmlar deb atar ekan, baynalmilal oy nomlarining tilimizga o'zlashtirilishi eski oy nomlarining iste'moldan chiqishiga sabab deydi. Agar tahlil qiladigan bo'lsak, aslida ham shunday. Ammo ta'kidlab o'tish joizki, bu mumtoz asar yaratilgan davr uchun odatiy bir hol, lekin hozirda tilning passiv qatlidan o'rin olgan, asliyatning haqiqiy tarixiy manba ekanligini ta'minlovchi ushbu til

<sup>32</sup> Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой. Средней Азии. М., 1962. – С.28.

<sup>33</sup> Холмирзаев Ф. Хотира уйғонса гўзалдир. – Т.: "Фан", 2003. – Б. 56.

<sup>34</sup> Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: "Фан", 1981. 146 б.

birliklarining tarjimada meyorini belgilash juda nozik masalalardandir. Tarjimada asliyatdagidek matn qayta tiklanganmi yoki yo'qmi, buni o'rganish muhim ahamiyatga ega desak, masalani to'g'ri qo'ygan bo'lamiz.

"Boburnoma" matnida yil fasllaridan tashqari, kunlarning nomlanishi ham o'lchov birliklari leksemalarining aniqlanishiga asos bo'lgan. Bunday asos "Boburnoma" muallifining Hindistonga Sharq sivilizatsiyasini olib kirganining dalili, desak adashmaymiz. "Dunyoning juda katta qismida hozirgi vaqtida Ovrupo /nasroniy/ xalqlarining o'lchov birliklari leksemalari hukmron. Shu bois, bizda aksariya, musulmon va budda o'lchovlarini hozirda bilishmaydi. Biroq Bobur o'zga mamlakat, boshqa xalqlarning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga ular qanday bo'lsa o'shandayligicha qarashdan tashqari, islom dini va madaniyati, mantiqi va tushunchalari tamoyillari bilan muqoyasaga keltiradi. Natijada juda ajib va jozib muqoyasaviy tarh yuzaga keladi"<sup>35</sup>.

Bir kecha-kunduzdagi vaqt taqsimotining hind variantidagi murodifini qidirar ekan, Boburning hatto bir daqiqa miqdorini belgilashda islom dinidagi *fotiha* kalimasining talaffuzi uchun ketadigan vaqt nisbatini va necha muddatdagi hind vaqt birligining qaysi miqdoriga teng kelishini bildirgani muhim: *Kunlarga ham ot qo'yubturlar: shanba – sanichar; yakshanba – aytvar; dushanba – sumvar; seshanba – mangalvar; chahorshanba – budvar; panjshanba – bripastvar; odina – sukrvar.*

*Nechukkim, bizning viloyatlar istilohida kecha-kunduzni yigirma to'rt qismat qilibturlar, har qaysini bir soat debturlar va har soatni oltmish qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa debturlarkim, bir kecha va kunduz ming to'rt yuz daqiqa bo'lg'ay. Daqiqaning miqdori taqriban olti qatla fotihani bismillo o'quq'unchadurkim, bir kecha-kunduz sekkiz ming olti yuz qirq navbat fotihani bismillo bila o'quq'uncha bo'lg'ay* (BN.207).

Bunday tasvir, avvalo, ziyrak astronom Boburning tafakkuri mevasi bo'lsa, ikkinchidan, Hindistonda daqiqa, soniya, bir kecha-kunduz vaqt o'lchov birligi leksemalarini belgilab bergani o'ta muhimdir. Chunki Bobur bek va ayonlari, lashkar va saltanatidagi barcha fuqarolarga mana shunday sodda talqinda hind vaqt birligi leksemalarini, aniqlik bilan, har bir xalq, millatga xos tarzda madaniy xususiyatlari jihatidan talqin qilib bermaganida, davlatchilik ishlarida turli chalkashlik va tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin edi. Bu sodda, ayni paytda ko'plab millat, til, tabaqa va toifadagi aholiga vaqt birligini aniq tushuntirish yo'lining belgilab berilishi o'sha davrda yuksak kashfiyot bo'lgan.

<sup>35</sup>Отажонов Н. Бобурнома жаҳон адабий жараёнида. Қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1994. – Б.224.

O'lchov birliklari leksemalarining tarjimalarda ifodalanishini tahlil qilamiz, Leyden-Erskin tarjimasida: *As, by the usage of our country, the day and night are divided into twenty-four parts, each called an hour, and each hour into sixty minutes; so that the day and night are composed of one thousand four hundred and forty minutes; and as in the space of a minute, the fatiheh (or first chapter of the Koran), with the bismillah (or blessing), may be repeated six times, they may be repeated eight thousand six hundred and forty times in the space of a night and day* (L-E.Vol.II.; 238) (bizning mamlakatda kecha va kunduzni yigirma to'rt qismga ajratib, har birini bir soat deyishadi va har bir soat oltmisht daqiqadir, shuningdek, bir kecha-kunduz bir ming to'rt yuz qirq daqiqaga to'g'ri keladi (o'z ichiga oladi) bir daqiqaning miqdori taxminan fotihani (yoki Qur'onning birinchi surasini) bismillo bilan (yoki duo) olti marta takrorlashga teng keladi, bir kecha-kunduz sakkiz ming olti yuz qirq marta takrorlashga tengdir (S.SH) tarzida keladi. Kecha-kunduzning necha daqiqaga teng ekanligi muallif tomonidan qanchalik badiiy mahorat bilan tavsiflangan bo'lsa, tarjimon uni asliyatdagidek tiklashga uringan. Asliyat matnidagi sodda gaplar tarjimada grammatik transformatsiya asosida qisqartirib ifodalangan. Asliyatdagi: *har soatni oltmisht qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa debturlarkim jumlesi, each hour into sixty minutes (har bir soat oltmisht daqiqadir)* deb qayta tiklagan. Bunday qisqartirish asliyat matnining pragmatik xususiyatlariga muvofiq kelgan. Ba'zan tarjima matnidagi biror jumlni qisqartirish, matn mazmunining nomuvofiq o'zgarishiga olib keladi. Shu bois har bir so'zning muqobil variantini tanlashda yoki matn tarjimasini qisqartirib o'girishda, tarjimon asliyat shakl-mazmuniga xos pragmatik muvofiqlik va nomuvofiqlik jihatlariga ham e'tibor qaratishi shart".

*Daqiqaning miqdori taqriban olti qatla fotihani bismillo o'qug'unchadurkim, bir kecha-kunduz sekkiz ming olti yuz qirq navbat fotiha ni bismillo bila o'qug'uncha bo'lg'ay ushbu parchada keltirilgan islomiy o'lchov birliklari leksemalari tarjimasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, and as in the space of a minute, the fatiheh (or first chapter of the Koran), with the bismillah (or blessing), may be repeated six times, they may be repeated eight thousand six hundred and forty times in the space of a night and day, deb beriladi. Keltirilgan fotiha va bismillo islomiy so'zlarni vaqtni qanchalik aniq keltirish uchun foydalangan. Tarjimada: the fatiheh (or first chapter of the Koran), with the bismillah (or blessing) fotihani (yoki Qur'onning birinchi surasini) bismillo bilan (yoki duo), kabi keltiriladi. Ushbu fotiha so'zi fatiheh (or first chapter of the Koran) tarjima matnida transliteratsiya orqali berilgan, bismillo so'zi ham bismillah (or blessing) tarzida transliteratsiya qilinadi va har ikkalasida so'zlarini tushunish uchun izoh berib o'tiladi. Bu boshqa dinga e'tiqod qiluvchi kitobxonlar uchun tushunarli bo'lishga xizmat qiladi.*

A.Beverij tarjimasida: *As in our countries what is known by the (Turki) term kicha-gunduz (a day and night, nycthemeron) is divided into 24 parts, each called an hour (Ar. sa'at), and the hour is divided into 60 parts, each called a minute (Ar.daqiqa), so that a day-and-night (Author's note on the daqiqa.) The daqiqa is about as long as six repetitions of the Fatiha with the Bismillah, so that a day-and-night is as long as 8640 repetitions of the Fatiha with the Bismillah) consists of 1440 minutes* (A.B.516) (bizning mamlakatdagi kabi kecha-kunduz termini ma'lumki yigirma to'rt qismga bo'linadi, har birini saat deyishadi, har bir saat oltmishta qismga bo'linib, har birini daqiqa deb ataydilar, shuningdek, bir kecha-kunduz (muallifning daqiqaga izohi) bir daqiqaga taxminan bismillo bilan fotihani olti marta takrorlashgacha cho'ziladi. Shuningdek, kecha va kunduz bismillo bilan fotihani sakkiz ming olti yuz qirq marta takrorlashgacha cho'ziladi, bir ming to'rt yuz qirq daqiqadan iborat (M.T). Tarjimon hind vaqt birliklarining islomiy atamalar bilan berilishiga asosiy e'tiborini qaratgan. Shu nuqtai nazardan A.Beverij tarjimasida izoh va sharhlarga keng o'rinn berilgan. Tarjima matnida *daqiqa* va *kecha-kunduz* kabi vaqt birliklari leksemalarining izohi alohida ajratib ko'rsatilgan. *Daqiqa, saat* so'zlarining arabcha so'z ekan maxsus qayd etilgan. "Kecha-kunduz" so'zini transliteratsiya orqali berar ekan, tarjimon shunday izohni ilova qiladi: *the (Turki) term kicha-gunduz (a day and night, nycthemeron)*, ya'ni ushbu so'z turkcha ekanligini aytadi, qo'shimcha tarzda, so'zning ingliz tilidagi variantini ko'rsatadi. A.Beverij ayni matn tarjimasiga ijodiy usulda yondashgan, ko'proq ilmiy sharhlar bergan bo'lsa-da, tarjimaning retseptor uchun qulay, tushunarli bo'lishini ta'minlashga uringan. Xususan, vaqt o'lchov birliklari leksemalarini qayta tiklashda son orqali ifodalaydi. Vaqt o'lchov birliklari leksemasini asliyatda ifodalangandek berishga harakat qiladi. Bularning hammasi retsepsiya jarayonlarini qulaylashtirishga xizmat qiladi.

A.Beverij islomiy atamalar orqali vaqt o'lchoviga aniqlik kiritish maqsadida: *The daqiqa is about as long as six repetitions of the Fatiha with the Bismillah, so that a day-and-night is as long as 8640 repetitions of the Fatiha with the Bismillah) consists of 1440 minutes* (bir daqiqaga taxminan bismillo bilan fotihani olti marta takrorlashgacha cho'ziladi. Shuningdek kecha va kunduz bismillo bilan fotihani sakkiz ming olti yuz qirq marta takrorlashgacha cho'ziladi) bir ming to'rt yuz qirq daqiqadan iborat (M.T), deb tarjimada keltiradi. Fotiha so'zi Fatiha, bismillo esa Bismillah shaklida tarjima matnida transliteratsiya qilish yo'li orqali qayta tiklanadi, muallif tomonidan berilgan islomiy atamalarni mutarjim aynan ifoda etishga erishgan.

V.Tekston tarjimasida: *"In our country a day and night is conventionally divided into twenty-four parts, each of which is called an hour, and every hour is divided into sixty parts, each of which is called a minute, so there are 1,440 minutes in a day and night. The*

duration of a minute is about what it takes to say the Fatiha with the Basmala six times, so that during a day and night the Fatiha and the Basmala could be recited 8,640 times" (W.T. 348-349) (Bizning mamlakatimizda kecha-kunduz yigirma to'rt qismga bo'linadi, har biri soat deb ataladi, har bir soat oltmishta qismga bo'linadi, har biri daqqaq deyiladi. Shuningdek kecha-kunduzda bir ming to'rt yuz qirq daqqaq bo'ladi. Bir daqiqaning uzunligi taxminan bismillo bilan fotihani olti marta aytishiga tengdir, bir kecha-kunduz vaqt fotiha va bismilloni sakkiz ming olti yuz qirq marta yoddan aytishicha bo'lishi mumkin (M.T) deb o'girilgan. Tarjimon har bir o'lchov birliklari leksemasini asliyat matnidagi ma'nosiga mos muqobilini tanlaydi. Leksik muammolar yechimini topishga harakat qiladi: "daqiqaning miqdori taqriban olti qatla fotihani bismillo o'quq'unchadurkim jumlesi The duration of a minute is about what it takes to say the Fatiha with the Basmala six times (Bir daqiqaning uzunligi taxminan bismillo bilan fotihani olti marta aytishiga tengdir) deb beriladi. Tarjimon bu o'rinda har bir so'z va birikmani aynan muallif ifodalagandek ekvivalentini topa olgan. V.Tekston soddalik va lo'ndalikka intiladi. Tarjimaning stilistik jihatlariga ham e'tibor qaratadi.

Bu o'rinda tarjimon bir mamlakatda yashovchi xalqlarga xos bo'lган matnni diaxronik jihatdan o'rganishi zarur bo'ladi. Ma'lumki, bir xalq tilidan nofaol qatlamdan joy olgan til birliklari, boshqa bir xalq tilida aktiv ishlatilayotgan bo'lishi hisobga olinishi lozim. YA'ni islom dini nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, bunday holatda mutarjimdan tarjimaga tarixiy yondashish hamda tarixiy voqealar bayonini buzmay asliyatga muvofiq tarjima qilinishi nazarda tutiladi.

Har uchala tarjimon tomonidan vaqt o'lchov birliklari leksemalarini islomiy atamalar orqali yanada aniqlashtirilishini tahlil qildik, bunda transliteratsiya orqali tarjima amalga oshirilsa-da, har xillik kuzatildi. Leyden-Erskin tarjimasida izoh bilan berilsa, A.Beverij tarjimasida muallif bergen so'zning talaffuz qoidalari asliyatga yaqin qayta tiklanganiga guvoh bo'ldik, V.Tekston ham o'z nuqtai nazaridan yondashgan.

Demak, tarjimonlar matn tarjimalarida har bir voqe va hodisaning bo'lib o'tgan vaqtini tafsilotlarigacha aniq ko'rsatishga harakat qilgan. Faqat muayyan tarzda ifodalangan tasvirlar va voqealar tafsiloti ifodasi bilan cheklanib qolmasdan, balki badiiy matnning estetik xususiyatlariga diqqat qaratadi. So'zlarning muqobil variantlarini, matndagi mazmun va xususiyatiga ko'ra to'g'ri tanlay oladi. Bu yo'lida jiddiy izlanadi. Ekvivalentlikka intiladi. Tarjima jarayonida ekvivalentning muhimligi xorijlik tarjimashunos Diane Lii Smis tomonidan shunday talqin etiladi: "Ekvivalentlik bir xil holatni turli stilistik va strukturaviy mexanizmlar orqali ko'rsatishdir. Ko'pincha ekvivalentlilik iboralar, aforizmlar, maqollar va matallarni

o'z ichiga oladi, ularni belgilab, aynan tarjimasi bo'limganda muqobil varianti olinadi. Nihoyat, moslashtirishda (adaptatsiya) qachonki manba tilidagi xabarning vaziyatini aks ettiruvchi holat mavjud bo'limgan hollarda qo'llaniladi va mos keladigan holat bilan almash tirish kerak bo'ladi"<sup>36</sup>. Tarjimalarda nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llangan obrazli yoki hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarni, balki amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi, deb tasavvur qilinadigan erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalarini o'girishda ham aniq ma'no-mazmun ifodalovchi muqobil variantni topish talab etiladi. Demak, asliyatdagi matematik qiyoslarni muallif tasvirlagandek qayta tiklash, har bir detalga alohida e'tibor qaratish tarjimon mas'uliyatidan dalolat beradi. Chunki tarjima matnlarini asliyatga muvofiq, lingvistik va pragmatik muammolarni hal qilgan holda o'girish mo'ljal aniqligini ta'minlaydi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini o'girishda bu jihat o'ta muhimdir.

Asliyatga muqobil tarjima yaratishda vaqt o'lchovini bildiruvchi birliklar haqida to'xtalib, taniqli tarjimashunos olim A.V.Fyodorov: "Asliyatdagi bir ma'noli so'zga turli konekstlarda birday mos keladigan bir ma'noli so'zning to'g'ri kelishi amaliyotda juda kam",<sup>37</sup> deb ta'kidlaydi. Bunday muvofiqlik faqat ba'zi leksik birliklarga, ya'ni so'zlar, kalendar tushunchalarni anglatuvchi hamda qarindoshurug'chilikni bildiruvchi otlar, kishilik olmoshlariga taalluqlilagini aytib o'tadi. Olimning fikrini asosli deb bilgan holda, shuni qo'shimcha qilamizki, kalendar tushunchalarini yoki vaqt o'lchovini anglatuvchi bunday leksik birliklar Grigorian yil hisobi qo'llangan asarlar tarjimasi haqida gap borganda, ularni o'girish yoki transliteratsiya qilish ham aynan Grigorian yil hisobida amalga oshirilgan matnda shunday xususiyatga ega bo'ladi. Ammo sharq hayoti tasvirlangan mumtoz asarlarda hijriy shamsiy-qamariy yil hisobi qo'llangan, ularni zamonaviy tillarga o'girish tarjimonlar uchun ham qiyinchilik tug'diradi.

Jarib //Jerib so'zi yer o'lchovi ma'nosida qo'llangan. V.Xitsning fikricha, so'nggi o'rta asrlarda bir jarib 100 kv kasabaga aniqrog'i, 1592 kv m ga teng bo'lган bir kasaba - 399 sm, yoki ba'zi tarixiy asarlarda 1200 kv m ga teng deb berilgan. E.A.Davidovichning yozishicha, jarib tanob bilan parallel qo'llanilgan va O'rta Osiyoda bir jarib, 3600 kv gazga teng bo'lган. Eronda esa jarib 1 gektarni ifodalagan. Forslar, asosan kichik jaribni qo'llaganlar. Kichik jarib 960 kv m dan 1600 kv m gacha bo'lган sathni ifodalagan. H.Sultonovning "Boburiynoma"

<sup>36</sup>Diane Lee Smith. Claire Martin in English: Theory and Practice of Literary Translation. The Dissertation of PhD. The University of Alberta. Edmonton. – Alberta, 1976. – P.3.

<sup>37</sup> Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – М.: "Высшая школа", 1983. – С.134.

asarida jirib: eni 60, bo'yi 80 metrdan iborat maydon deb qayd etilgan<sup>38</sup>. Ko'rinaridiki, jarib turliche davrlarda turli o'lchovni ifodalagan. Asarda bu so'z quyidagi matnda uchraydi: "Va har biriga 80 jerib (yer berilur; munddin 40 tanobi "mazru" qilib, hosilni xud bari o'zlari truf qilurlar va yaxshilar alarning ulufasiga hisob qilurlar va qolg'on qirq tanobdan ortuq eksalar mol berurlar)"<sup>39</sup>, agar biz ushbu fikrlarga suyangan holda, jaribni 1200 kv m ga teng desak, unda yuqoridagi keltirilgan sakson jarib 96000 kvmga teng bo'ladi. "Navoiy asarlari lug'ati"da bu so'zni taxminan 1 tanobga teng ekanligi qayd etilganligini hisobga olsak, E.A.Davidovichning fikrlari haqiqatga yaqinroq ko'rindi.

Ko'rinaridiki, islomiy atamalar bilan ifodalangan va islomiy o'lchov birlik leksemalarini o'girishda tarjima variantlarining har biri boshqa shakl, boshqa usullarda maydonga kelgani ma'lum bo'ladi. Qiyosiy tahlillar har bir tarjimonning bu masala talqinida tarjima amaliyotiga xos turli tajribalardan foydalanganini ko'rsatadi. Leyden-Erskin va A.Beverij tarjimalarida transliteratsiya va tarjima usuli parallel olib boriladi. Ammo ikki tarjimon islomiy o'lchov birliklariga doir bir so'zning ingliz tilidagi ikki shakli, variantini qo'llaydilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiri'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, - London, 1922; Repr, in one Volume, - London, 1969. - 25 p. – New Delhi, 1970. - 78 p. Lahore, 1975. - 72 p.
2. Blagova G.F. O xarakteristike grammaticheskogo stroya (morphologii starouzbekskogo literaturnogo yazika konsa XV veka po "Baburname"). Diss. ...kand.filol.nauk. - M., 1954. -247 s.
3. King L, Leyden J. & Erskine W. Memoirs of Zehir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan. - London, 1826. Annotated and revised ed. by L. King, 2 Vols., - Milford, 1921. - 480 p.
4. Lane-Poole. Babar. - Oxford, Clarendon Press, 1899. - 260 r.
5. Teshaboyeva Z. "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. - Toshkent, 2021. - 255 b.
6. Muxammadiyeva D. "Boburnoma" turkcha tarjimasida paremiyalarning qiyosiy tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha fal.dok. diss. - T., 2021. -136 b.

7. Azimjanova S. Kobul va Hindistonda Boburning soliq borasidagi siyosati. Sharqshunoslik. (O'zR FA SHI). Maqolalar to'plami. – T.: "Fan", 1996. – №7. – 239 b.

8. Axmedov M. Boburiylar sultanatida moliya siyosati // Andijonnomma. 2002. 13 fev.